

Eski uyg'urcha yozma matnlarga ko'ra qadimgi turk tabobati

Navro'z Ro'ziev

Toshkent tibbiyot akademiyasi
ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Qadimgi turklarda tabobat ilmi qanday bo'lgani masalasini yoritishda qadimgi turk-run yozuvli bitiklar va boshqa turli alifbolardagi turkiy yozma manbalardan tashqari xitoy, sug'd, tibet, arab va fors tillaridagi asarlarda uchraydigan ma'lumotlar o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu tillardagi yozma manbalar asosan rivojlangan o'rta asrlarga tegishli bo'lib, ko'pchiligi IX – XII asrlarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, qadimgi turk tabobatini yorituvchi yozma manbalar qatorida eski uyg'urcha, to'g'rirog'i, sug'diycha negizli qadimgi turk yozuvida bitilgan ko'plab tibbiy matnlar ham alohida o'rin egallaydi.

Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda Yevroosiyo kengliklarining ilk yirik saltanatini tuzib, turkiy elatlarning Qora dengiz shimolidan Uzoq Sharqqacha, Janubiy Sibirdan Amudaryo qirg'oqlargacha cho'zilgan keng hududlarda tarqalishiga turtki bo'lgan Turk xoqonligi (552-744) qaramog'ida bo'lgan uyg'urlar 745 yilda o'z davlatini barpo qiladilar¹. Markaziy hududlari O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston), Shimoliy Xitoy va Oltoy tog'larini qamrab olib, 840 yilgacha deyarli yuz yillik bir hokimiyati davrida Uyg'ur xoqonligi Turk xoqonligining sharqiy qismlarida o'z hokimiyatini o'rnatib, o'sha chog'larda dunyoning eng yirik saltanatlaridan bo'lmish Xitoy va Tibet bilan yaqin siyosiy va diplomatik aloqalarga kirishadi. Boshqa tomondan esa Markaziy Osiyoning janubi-g'arbiy qismlarini egallagan arablar bilan qo'shni bo'lib qolgan Uyg'ur xoqonligi davrida turkiy elatlarning ko'pchiligi ushbu xoqonlik qo'l ostida bo'ladi.


Turk xoqonligi davrida keng qo'llanilgan qadimgi turk-run yozuvini qo'llashda davom etgan Uyg'ur xoqonligi boshqaruvchilari keyinchalik bir necha yozuv turlaridan foydalangan holda ish yurita boshlaydi². Sharqiy Turkistonning Turfon vohasi va uning atroflaridan topilgan qadimgi turk-run, sug'diy, suryoniy, manixey alifbolarida yozilgan turlicha yozma matnlarning aynan Uyg'ur xoqonligi va uning Sharqiy Turkistondagi davomchilari bo'lmish Qo'chu-Uyg'ur davlati (IX – XIV asrlar) bilan bog'liq bo'lishi bundan darak beradi. Ayniqsa, Uyg'ur xoqonligi o'zining O'rxun vodiysini siyosiy markaz qilgan chog'larida qadimgi turk-run yozuvi bilan birga sug'diy yozuvi negizida yaratilgan yangi alifbosida ham ish yurita boshlaydi. Ushbu alifbo o'rta asrlarda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham "uyg'ur yozuvi" deb yuritilib, asl nomi "turk yozuvi"dir. Buni XI asrda yozilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asarida "uyg'ur alifbosi" deb ataladigan harflar keltirilib, quyidagi ochiqlamalar berilishi ham tasdiqlaydi: "Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni 18 ta. Turkcha yozuvda shular qo'llaniladi"³.

Uyg'ur xoqonligi (744-840) davrida yaratilgan qadimgi turkiy bitiktoshlardan ayrimlari sug'diy negizli yozuvda bo'lishi ushbu xoqonlik davrida bu yozuvning keng qo'llanila boshlagani, shuning uchun ham o'rta asrlarda unga nisbatan "turk yozuvi" iborasi bilan birga "uyg'ur yozuvi" atamasi ham ishlatilishiga olib keladi. Biroq Turk xoqonligi davrida

¹ Кляшторный С.Г. Государства и народы Евразийских степей. – М., 2009. – С. 138-139; Тихонов Д.И. Хозяйство и общественный строй Уйгурского государства X – XIV вв. – М.-Л., 1966. – С. 29.

² Ölmez M. Orhon – Uyğur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları. – Ankara, 2013; Ölmez M. Uyğur Hakanlığı Yazıtları. – Ankara: Bilge Su Yayınları, 2018.

³ Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. Тошкент: Фан, 1960. – Б. 47.



bo'lganidek ushbu xoqonlik davrida ham yozma adabiy til uchun asosan "turk tili", ba'zan esa "turk uyg'ur tili" iboralari qo'llanilgan hollarga duch kelinadi. Qoraxoniylar davlati (960-1212) davrida esa "turk tili", "Koshg'ariya tili", "xoqoniya turkchasi" iboralari ishlatilib, bu ibora ostida ko'proq musulmon turklar – Sharqiy Turkiston, Yettisuv, shuningdek, Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi turkiy elatlarning adabiy tili tushunilgan bo'lsa⁴, "uyg'ur tili", "uyg'ur turkchasi" kabi iboralar Sharqiy Turkistondagi Qo'chu-Uyg'ur davlati aholisi, aniqrog'i Turfon va uning atroflari, Markaziy Tangritog' (Tyanshan)ning shimoliy etaklarida yashovchi musulmon bo'lmagan turkiylar uchun qo'llanila boshlaydi. Mahmud Koshg'ariy "xoqoniya turkchasi" deb yozgan til va "uyg'ur turkchasi" bir-biriga o'ta yaqin bo'lgan turkiy lahjalar bo'lib⁵, ularga Qoraxoniylar davrida shakllana boshlagan o'zbek va yangi uyg'ur turkchalarining boshlang'ichi deb qaraladi. XIII – XIV asrlarda "chig'atoy turkchasi" deb atala boshlab, to so'nggi o'rta asrlargacha Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va Sharqiy Turkistonda keng qo'llanilgan til o'zbek va uyg'ur adabiy tillari uchun mushtarak tilga aylanadi. Chig'atoycha yoki chig'atoy turkchasi "xoqoniya turkchasi" negizida shakllangan til bo'lishi bilan birga "eski uyg'ur turkchasi"ning davomchisi hisoblanadi⁶.

O'rta asrlarga tegishli uyg'urcha matnlarning katta ko'pchiligi sug'diy negizli ushbu alifboda yozilgan bo'lib, ularning katta bir qismini yuridik hujjatlar, bir qismini maishiy hayot, savdo-sotiq, ijaraga berish va olishga oid hujjatlar tashkil etishi bilan birga sezilarli bir qismi esa qadimgi turk tabobatiga tegishli matnlardan iboratdir. Shuningdek, XV asrga tegishli uyg'ur tabobatiga oid suryoniy yozuvidagi turkiy tilli matnlar uchrashini aytib o'tish kerak⁷. Eski uyg'ur yozuvidagi tabobatga oid matnlarda quyidagicha so'z va iboralar uchrab, ularning ko'pchiligi bugungi turkiy tillarda, ayniqsa, o'zbekcha va yangi uyg'urchada saqlanib qolgani ko'zga tashlanadi.

Eski uyg'ur yozuvidagi matnlardagi tibbiy atamalar bo'yicha bir qator tadqiqotchilar izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular orasida turkiyalik olim Y. O'zenning eski uyg'ur – g'arbiy turk (o'g'uz)cha tibbiy atamalarni o'zaro taqqoslagan maqolasi diqqatga sazovordir⁸. Quyida uning izlanishlaridan foydalangan holda eski uyg'urcha tabobatga oid so'z, atama, so'z birikmasi va iboralarni keltirib o'tishni lozim topdik:

1. **Davolash bilan bog'liq fe'llar:**

- 1) **ich-** "ichmoq", **ichur-** "ichtirmoq"
- 2) **islä-** "hidlamoq, iskamoq"
- 3) **qo'd-** "qo'ymoq (ustidan qo'ymoq)"
- 4) **sach-** "sochmoq"
- 5) **so'q-** "tiqmoq, suqmoq"
- 6) **surd-** "surtmoq"
- 7) **tamish-** "tomizmoq"
- 8) **tiq-** "tiqmoq"
- 9) **tud-** "tutmoq"
- 10) **turd-** "(ustiga) tegizish, surmoq"


⁴ Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари / Фитрат; нашрга тайёрловчи О.Хамроева; масъул муҳаррир Ҳ.Болтабоев; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон М иллий ун-ти. – Тошкент: MUMTOZ, 2008. – Б. 5.

⁵ Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. – Б. 64-65, 72, 135-136; Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 4-5.

⁶ Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2006; Бобоёров Ғ. Ўзбек тили тарихи (Энг эски чоғлари). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 8-10.

⁷ Ölmez M. "Süryani Harfli Eski Uyğurca Bir Tıp Metni" // 3. Uluslararası Türk Dil Kurultayı. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 1996. – S. 815-820.

⁸ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller // Bilig. Kış 2014/Sayı 68. – S. 267-296.



- 11) **ur-** “urmoq, surmoq”
- 12) **yaq-** “malham surkamoq”
- 13) **yun-** “yuvinoq”
- 14) **ye-** “yemoq”
- 15) **yur-** “puflamoq”⁹.

Davolash bilan bog‘liq eski uyg‘urcha fe‘llarning ko‘pchiligi bugungi turkiy tillarda deyarli to‘liq saqlanib qolgan bo‘lib, ularning sezilarli bir qismini o‘zbek tilida uchratish mumkin. Qizig‘i shundaki, o‘zbek adabiy tilida kam uchraydigan yoki fonetik jihatdan biroz farqli ko‘rinishdagi eski uyg‘urcha “**islä-** “hidlamoq, iskamoq” fe‘li o‘zbek adabiy tilida “**iska-** “hidni burunga tortmoq, hidlamoq”, o‘zbek shevalarida esa “**isla-** “hidlamoq” ma‘nosida hech bir o‘zgarishsiz saqlangan¹⁰.

Eski uyg‘urcha yozuvli matnlarda xalq tabobati bilan bog‘liq buncha ko‘p fe‘llarning ishlatilgani o‘sha kezlarda turkiy xalqlarda sog‘liq-salamatlik tizimi ancha rivojlanganidan darak beradi. Aslida turkiy xalqlarning qadim maskanlaridan biri bo‘lgan Sharqiy Turkiston va atroflarida tabobat ancha yuksak rivojlanishida bir tomondan bu hudud aholisining ancha qadim davrlardan beri ham o‘troq, ham ko‘chmanchi xalqlar o‘zaro kontakt tegralarda yashaganliklari, har ikkal aturmush tarziga ega aholining qo‘shni va aralash umr surganliklari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa bu yerning bir qator yirik sivilizatsiya o‘choqlari bilan hamhudud bo‘lganligi omili yotadi¹¹. Ya‘ni sharqiy tomondan Sharqiy Turkiston Xitoy, janubdan Tibet va Hind o‘lkalari bilan o‘zaro qo‘shnichilik va madaniy aloqalar tufayli bu hudud aholisi orasida xalqaro tabobat ilmi ancha boyigan edi. Shuningdek, Sharqiy Turkistonning qadimgi tarixiy-geografik hududlari – Turfon, Oqsuv, Kucha vohalarida qadimgi hind-yevropa xalqlaridan bo‘lmish toxarlar, Koshg‘arda sug‘diylar va kanjaklar, Xo‘tanda xo‘tan-sak elatlari yashab¹², ularning ko‘pchiligi o‘rta asrlarga kelganda turklashib ketgan va bu yerdagi turkiy xalqlar ularning qadimiy tabobat ilmini meros qilib olgan edi. Bundan tashqari, deyarli to‘rt yuz yillik mo‘g‘ul hokimiyati natijasida mo‘g‘ullarga xos tabobat sirlari ham sharqiy turkistonliklar tomonidan o‘zlashtirilib, yanada boyitilgan edi.

Quyida yuqorida keltirib o‘tilgan tabobatga aloqador eski uyg‘urcha matnlardan misollar keltirib o‘tsak. *Echku sudi birla yunsar yuz chimsiz bo‘lur* “Echki suti bilan yuvinsa yuz ajinsiz bo‘ladi”. Ushbu ma‘lumot boshqa ko‘plab xalqlarda bo‘lgani kabi turkiy xalqlar tabobatida ham echki suti shifobaxsh ekanidan yaxshi xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi. Qizig‘i shundaki, ushbu jumladagi so‘zlar o‘zbek tiliga juda yaqinligi ko‘zga tashlanib, uni tarjima qilmasdan ham tushunish mumkin.

Eski uyg‘urcha matnlarda biror “o‘t” (dorivor gilyoh) yoki malhamni “quloqqa qo‘yish”, “ko‘zga surtish”, “quloqqa tomizish” va hokazo so‘z birikmalari uchrab, bu kabi iboralar turkiy tillarning ko‘pchiligida, shu jumladan, o‘zbekchada faol qo‘llaniladi.

II. Dori tayyorlash bilan bog‘liq fe‘llar¹³.

- 1) **al-** “olmoq”
- 2) **bishir-** “pishirmoq”
- 3) **bulg‘a-** “bulamoq, qorishtirmoq”
- 4) **cho‘qarad-** “qaynatmoq”


⁹ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller // Bilig. Kış 2014/Sayı 68. – S. 269.

¹⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006. – Б. 230-231.

¹¹ Малавкин А. Г. История Восточного Туркестана в VII–X вв. // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. Очерки истории. Под. ред. С. Л. Тихвинского и др. – М.: Наука, 1988. – С. 297–351.

¹² Henning W. B. The Name of the “Tokharian” Language // AM. – London, 1950. – Vol. I. – P. 158–162; Bailey H. W. A Khotanese text concerning the Turks in Kantsou // AM. – London, 1964-1965. – Vol. I. – P. 28–52.

¹³ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller ... S. 279-280.



- 5) **elga-** “elamoq”
- 6) **isid-** “isitmoq”
- 7) **kes-** “kesmoq”
- 8) **kinla-** “(yaxshilab) puflamoq”
- 9) **kul qyl-** “kul qilmoq”
- 10) **kuyur-** “kuydirmoq”
- 11) **sach-** “sochmoq, sepmoq”
- 12) **simlap kinla-** “eritib cho‘zmoq”
- 13) **qayyintur-** “qaynatmoq”
- 14) **qyl-** “qilmoq, etmoq”
- 15) **qurut-** “quritmoq”
- 16) **salqymqa tegur-** “sovuqda saqlamoq”
- 17) **so‘q-** “tugmoq, ezmoq”
- 18) **to‘g‘ra-** “to‘g‘ramoq”
- 19) **to‘q-** “qotmoq (aralstirmoq), ezmoq”
- 20) **ugrā qil-** “ugra qilmoq” (dorini ugraday qilib tilim-tilim holatga keltirmoq)
- 21) **siq-** “siqmoq”
- 22) **yanch-** “yanchmoq”
- 23) **yay-** “eritmoq”
- 24) **yo‘g‘ur-** “yo‘g‘urmoq, qorimoq”
- 25) **ko‘m-** “ko‘mmoq”.

Eski uyg‘urcha tibbiy matnlarda dori tayyorlash, uni davolashda qo‘llash bilan bog‘liq fe‘llarning bunchalik ko‘p miqdorda uchrashi va ularning ko‘pchiligi bugungi kunda ham turkiy tillarning ko‘pchiligida aynan shu ma‘nolarda saqlanib qolgani qadimgi turklarda tabobat ancha yuksak rivojlanganidan darak beradi. Ayniqsa, qadim va o‘rta asrlarda turkiylar turli dorivor o‘t-o‘lanlar va minerallardan tayyorlanib, inson badaniga surtish, og‘iz orqali qabul qildirish, burun bilan hidlash vositasida amalga oshirilgan davolash usulini yaxshi bilganliklari ko‘zga tashlanadi.


Yuqorida keltirilgan fe‘llardan ko‘rinadagi, turkiy tabiblar dori va turli dorivor giyohlarni tayyorlash va davolashda qo‘llash jarayonida yanchish, aralashtirish, eritish, ko‘mish, yo‘g‘urish, siqish, isitish, kuydirish, sepish, surtish, pishirish, quritish, elash, kesish, qaynatish va hokazo usullardan foydalanishgan. Muhimi shundaki, ushbu usullar va ular bilan bog‘liq fe‘llar turkiy tillarda, ayniqsa, o‘zbek tilida qadimda qanday bo‘lsa deyarli o‘zgarishga uchramasdan shunday ma‘noda faol qo‘llaniladi¹⁴. Shuningdek, eski uyg‘urchadagi ayrim fe‘llar esa o‘zbek shevalarida nisbatan keng saqlangani diqqatni tortadi. Masalan, “qotmoq (aralstirmoq), ezmoq” ma‘nosidagi eski uyg‘urcha “**to‘qyl-**” fe‘li o‘zbek shevalarida “**do‘qi-**” “aralstirmoq” ko‘rinishida uchray¹⁵, qadimiy shakliga yaqinligi bilan diqqatni o‘ziga tortadi.

III. Kasallik belgisi va uning sabablari bilan bog‘liq fe‘llar

- 1) **ag‘ri-** “og‘rimoq, kasal bo‘lmoq”
- 2) **but- un but-** “ovoz qisilmoq, qisilmoq”
- 3) **inma-** “tushmaslik, inmaslik”
- 4) **keril- qarın keril-** “ich ketmoq”
- 5) **qus-** “qusmoq”
- 6) **sin- so‘nguk sin-** “sinmoq, suyak sinishi”
- 7) **siqil-** “siqilmoq”
- 8) **shish-** “shishmoq”
- 9) **to‘ru- ig to‘ru:** “kasallik rivoji”

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006-2008.

¹⁵ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 91.



10) **tun** – *ko'guz tun-* “ko'ks, ko'krak siqilishi”

11) **yurul-** *qarʻyn yurul* “ich ketmoq”¹⁶.

Eski uygʻurcha tibbiy matnlarda kasallik belgilari va kasallikning kelib chiqish sabablari bilan bogʻliq feʼllar sogʻlik-salomatlik tizimiga aloqador boshqa feʼllarga nisbatan birmuncha kam uchrashi kuzatiladi. Shuningdek, ayrim eski uygʻurcha feʼllarning bugungi turkiy tillarda kam uchrashi yoki unutilgani koʻzga tashlanadi. Shunga qaramay, “**agʻri-** “ogʻrimoq, kasal boʻlmoq”, “**qus-** “qusmoq, qayt qilmoq”, **sin-** “sinmoq (suyak sinishi)”, “**siqil-** siqilmoq”, “**shish-** shishmoq, qavarmoq” kabi qadimgi turkchada faol qoʻllanilgan feʼllarning bugungi turkiy tillarning koʻpchiligida, shu jumladan, oʻzbek tilida faol holatda qoʻllanilishi diqqatni oʻziga tortadi. Shu oʻrinda aytib oʻtish kerak, qadimgi davr va oʻrta asrlarda koʻpchiligi koʻchmanchi hayot kechirgan turkiy elatlarda taom bilan bogʻliq salbiy holatlardan biri – ich ketish jarayonini ifodalovchi bir qator feʼllar uchrab, ularning bir qismi hozirgi kunda ham ayrim turkiy tillarda u yoki bu darajada uchraydi. Eski uygʻurcha matnlarda bu holat bilan bogʻliq “*qarʻyn keril-*, *qarʻyn yurul*” kabi iboralar uchrab, Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻati-t-turk” asarida shunga oʻxshash jarayon bilan bogʻliq “utuk” (ich ketishi, qusish), “utuk tutti” (ich ketishi va qusish tutdi) koʻrinishlarida tilga olingan¹⁷. Qizigʻi shundaki, oʻzbek shevalarida “ichoʻtar”¹⁸, “ich oʻtti”, “ich-oʻtma” kabi iboralar aynan shu maʼnolarda qoʻllaniladi.

IV. Davolash natijasi bilan bogʻliq feʼllar

1) **achyl-** “ochilmoq”

2) **toʻklun-** *agʻusʻ toʻklun-* “ogʻu, zahari toʻkilmoq”

3) **ary-** *irin ary-* “yiring tozalanishi»

4) **boʻl-** *edgu boʻl-* “yaxshilanmoq”

5) **kid-** *bash agʻrygʻʻy kid-* “bosh ogʻrigʻi tuzalishi” (kid- “ketmoq” feʼlining bir varianti)

6) **oʻngät-** “yaxshilanmoq, shifo boʻlmoq”

7) **soʻn-** *agʻrygʻ soʻn-* “ogʻriq tinishi”

8) **tydul-** *qan tydul-* “qon toʻxtashi”

9) **yarash-** “yaramoq”¹⁹.

Yuqorida ham aytib oʻtilganidek, eski uygʻurcha tibbiy matnlarda uchraydigan davolash bilan bogʻliq ushbu feʼllarning koʻpchiligi bugungi turkiy tillarda u yoki bu darajada saqlanib qolgan boʻlib, ularning sezilarli bir qismini oʻgʻuz lahjalarida, katta bir qismini esa qarluq va qipchoq lahjalarida uchratish mumkin. Shu bilan birga, ayrim feʼllar birmuncha maʼno oʻzgarishiga uchragan holatdadir. Masalan, eski uygʻur mantlarida uchraydigan “qon toʻxtashi” bilan bogʻliq **tydul-** (*qan tydul-*) feʼli oʻzbek tilida “**tiyil-** “tiyilmoq, (harakatdan) toʻxtamoq” maʼnosida qoʻllaniladi. Shuningdek, «yiring tozalanishi» maʼnosida qoʻllanilgan **ary-** (*irin ary-*) feʼli bugungi kunda oʻzbek tili va shevalarida “**ari-** “borligi ketmoq, yoʻqolmoq (bor holda davom etayotgan narsalar haqida)”²⁰ maʼnolarida boʻlib, uning “tozalanmoq, toza boʻlmoq”qa yaqin maʼnolari ham saqlangan. Masalan, “yuzidan tabassum arimasin”, “uyidan mehmon arimasin” va h.k.²¹

¹⁶ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 290.

¹⁷ Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. Тошкент: Фан, 1960. – Б. 99.

¹⁸ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 129.


¹⁹ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 291.

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006. – Б. 97.

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006-2008.

²¹ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 91.

²¹ Özen Y. Eski Uyğur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 290.




Eski uyg'urcha "yaxshilanmoq, shifo bo'lmoq" ma'nosidagi **o'ngät-** fe'li o'zbek shevalarida **o'ng-** "yaxshilik sari o'zgarmoq, unmoq, o'smoq"²², **o'ngal-** "tuzalmoq, yaxshilanmoq" shakllarida uchraydi.

Qisqasi, asosiy qismi rivojlangan o'rta asrlarga tegishli eski uyg'ur yozuvidagi manbalarning bir qismini tashkil etuvchi tibbiy matnlarda o'rin olgan so'z, atama va so'z birikmalaridan anglashiladiki, turkiy xalqlar tabobati o'z davrida mintaqaning anchagina rivojlangan sohasi sifatida o'zini namoyon qilgan. Ayniqsa. Sharqiy Turkiston va uning tegralarida yashagan turkiy elatlar, xususan, uyg'ur turklari tabobat sohasida ancha ilg'or bo'lib, ulardan bu sohaga oid ko'plab yozma ma'lumotlar, tibbiy matnlar va tarjimalar yetib kelgan. O'z davrida bir qator yirik saltanatlariga asos solgan ushbu turkiy elat vakillari Uyg'ur xoqonligi (745-840), Qo'chu-Uyg'ur davlati (IX – XIV asrlar) o'z davrining yirik madaniyat markazlari Xitoy, Tibet va Hind o'lkalari bilan tig'iz iqtisodiy-madaniy aloqalar o'rnatish bilan birga ushbu tarixiy o'lkalarning tibbiy yutuqlaridan ham yaxshi xabardor bo'lishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кляшторный С.Г. Государства и народы Евразийских степей. – М., 2009. – С. 138-139; Тихонов Д.И. Хозяйство и общественный строй Уйгурского государства X – XIV вв. – М.-Л., 1966. – С. 29.
2. Ölmez M. Orhon – Uygur Hanlığı Dönemi Moğolistan'daki Eski Türk Yazıtları. – Ankara, 2013; Ölmez M. Uygur Hakanlığı Yazıtları. – Ankara: Bilge Su Yayınları, 2018.
3. Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. Тошкент: Фан, 1960. – Б. 47.
4. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари / Фитрат; нашрга тайёрловчи О.Хамроева; масъул муҳаррир Х.Болтабоев; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон М иллий ун-ти. – Тошкент: MUMTOZ, 2008. – Б. 5.
5. Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. – Б. 64-65, 72, 135-136; Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Б. 4-5.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2006; Бобоёров Ғ. Ўзбек тили тарихи (Энг эски чоғлари). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 8-10.
7. Ölmez M. "Süryani Harfli Eski Uygurca Bir Tıp Metni" // 3. Uluslararası Türk Dil Kurultayı. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 1996. – S. 815-820.
8. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller // Bilig. Kış 2014/Sayı 68. – S. 267-296.
9. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller // Bilig. Kış 2014/Sayı 68. – S. 269.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. И ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006. – Б. 230-231.
11. Малявкин А. Г. История Восточного Туркестана в VII–X вв. // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. Очерки истории. Под. ред. С. Л. Тихвинского и др. – М.: Наука, 1988. – С. 297–351.
12. Henning W. B. The Name of the "Tokharian" Language // AM. – London, 1950. – Vol. I. – P. 158–162; Bailey H. W. A Khotanese text concerning the Turks in Kantsou // AM. – London, 1964-1965. – Vol. I. – P. 28–52.
13. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller ... S. 279-280.

²² Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 394.



14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006-2008.
15. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 91.
16. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 290.
17. Кошғарий, Махмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Т. I. Тошкент: Фан, 1960. – Б. 99.
18. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ шевалари луғати. – Б. 129.
19. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 291.
20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006. – Б. 97.
21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент, 2006-2008.
22. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 91.
23. Özen Y. Eski Uygur Türkçesi ve Batı Orta Türkçesiyle Yazılmış Tıp Metinlerindeki Fiiller. – S. 290.
24. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 394.
25. Тошназаров, Ш. М., Низомов, Б. У., Холлиев, Р. Х., & Тошназарова, Н. Ш. (2019). Эффективность применения бета-блокаторов при лечении дилатационной кардиомиопатии, осложненной хронической сердечной недостаточностью II б стадии (по НУНА III ФК). International scientific review, (LXV), 107-108.
26. Агабабян, И. Р., Ярашева, З. Х., & Тошназарова, Н. Ш. (2022). Тошназаров Ш. М. 4. Достижения науки и образования, 88.
27. Пулатова, К. С. (2023). ВЛИЯНИЕ АНТИГИПЕРТЕНЗИВНЫХ ПРЕПАРАТОВ НА ИНСУЛИНОРЕЗИСТЕНТНОСТЬ И ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИПИДНОГО СПЕКТРА. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 72-75.
28. Агабабян, И. Р., Ярашева, З. Х., Тошназарова, Н. Ш., & Тошназаров, Ш. М. (2022). ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КОМБИНИРОВАННОГО ПРИМЕНЕНИЯ АНТАГОНИСТОВ РЕЦЕПТОРОВ АНГИОТЕНЗИНА II И СЕРДЕЧНЫХ ГЛИКОЗИДОВ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ГИПЕРТОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ, ОСЛОЖНЕННОЙ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ II Б СТАДИИ (ПО НУНА III ФК). Достижения науки и образования, (1 (81)), 88-90.